



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

IMO-ISHORALARNING PRAGMATIK VAZIFALARI: KONTEKST VA KOMMUNIKATIV NIYAT

Raxmonqulova Maftunaxon Toxirjon qizi

Fargʻona davlat universiteti, doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola imo-ishoralarning ogʻzaki nuqtda anglatadigan pragmatik xususiyatlarini batafsil yoritib beradi. Imo-ishoralarning paydo boʻlish tarixi, uning kommunikativ muloqotlarda imo-ishoralarning kontekstga qarab turli pragmatik maʼnolarni ifodalashi haqida maʼlumot beriladi. Maqolada Janet Bavelas, David McNeill, Adam Kendon kabi olimlarning multimodal pragmatika va interaktiv imo-ishoralarga oid nazariy yondashuvlari tahlil qilindi. Keltirilgan maʼlumotlar tilshunoslar, diskurs tahlilchilar, pragmatika mutaxassislar uchun imo-ishoralarni pragmatik jihatdan tahlil qilishda nazariy manba boʻlib xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Imo-ishoralar, ogʻzaki nutq, pragmatik xususiyatlar, pragmatik maʼnolar, multimodal pragmatika..

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЖЕСТОВ: КОНТЕКСТ И КОММУНИКАТИВНОЕ НАМЕРЕНИЕ

Рахмонкулова Мафтунахон Тохиржон кизи

Ферганский государственный университет, докторант

Аннотация

Данная статья подробно освещает прагматические особенности жестов в устной речи. В ней представлены сведения об истории возникновения жестов и о том, как в коммуникативном взаимодействии жесты выражают различные прагматические значения в зависимости от контекста. В статье анализируются теоретические подходы Джанет Бавелас, Дэвида Макнилла и Адама Кендона, посвященные мультимодальной прагматике и интерактивным жестам. Представленный материал служит теоретическим источником для лингвистов, аналитиков дискурса и специалистов по прагматике при прагматическом анализе жестов.

Ключевые слова: Жесты, устная речь, прагматические особенности, прагматические значения, мультимодальная прагматика.

PRAGMATIC FUNCTIONS OF GESTURES: CONTEXT AND COMMUNICATIVE INTENTION

Rakhmonqulova Maftunakhon Toxirjon qizi

Fergana State University, Doctoral Student

Abstract

This article thoroughly examines the pragmatic features expressed by gestures in spoken language. It offers insights into the history of gesture emergence and the ways gestures convey diverse pragmatic meanings in communicative interactions depending on context. The article analyzes the theoretical frameworks of Janet Bavelas, David McNeill, and Adam Kendon concerning multimodal pragmatics and interactive gestures. The presented material serves as a theoretical source for linguists, discourse analysts, and pragmatics specialists in the pragmatic analysis of gestures.

Keywords: Gestures, spoken discourse, pragmatic features, pragmatic meanings,

multimodal pragmatics.

Imo-ishoralar insonlar o'rtasidagi muloqotda til vositalaridan tashqari qo'llaniladigan noverbal kommunikatsiya elementlari hisoblanadi. Ular insonning qo'l harakatlari, yuz ifodalari, tana holati va boshqa jismoniy harakatlari orqali muayyan axborotni yetkazishga xizmat qiladi. Imo-ishoralar ko'pincha nutq bilan birga qo'llanilib, uning ma'nosini aniqlashtiradi, kuchaytiradi yoki to'ldiradi. Tilshunoslik va pragmatika nuqtayi nazaridan qaralganda, imo-ishoralar kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali so'zlovchining niyati, emotsional holati hamda munosabati ifodalanadi.

Imo-ishoralar o'zining shakli va funksiyasiga ko'ra turli ko'rinishlarga ega. Masalan, qo'l harakatlari orqali beriladigan kinetik imo-ishoralar, yuz mushaklari harakati bilan ifodalanadigan mimik vositalar hamda tana holati orqali yuzga chiqadigan postural belgilar shular jumlasidandir. Suhbat davomida qo'l kaftini oldinga qaratib ko'tarish odatda suhbatni to'xtatish yoki e'tiborni jalb qilish ma'nosini anglatadi. Bu ishora ko'pincha ogohlantirish yoki cheklash funksiyasini bajaradi.

Boshqa bir holatda, qo'lni o'ziga tomon harakatlantirish orqali bajariladigan ishora tinglovchini yaqinlashishga yoki suhbatga qo'shilishga undaydi. Ushbu ishora kommunikativ jarayonda chaqiruv vazifasini bajaradi. Shuningdek, barmoq bilan muayyan bir yo'nalishni ko'rsatish keng tarqalgan kinetik ishoralardan biridir. Bu holatda so'zlovchi nutqni qo'llab-quvvatlab, aniq obyekt yoki manzilga e'tiborni qaratadi. Qo'l barmoqlarini bir-biriga yaqinlashtirib, kichik masofani ko'rsatish orqali predmetning hajmi yoki miqdori haqida qo'shimcha ma'lumot berish ham kinetik imo-ishoralarga kiradi. Bu esa nutqning aniqligini oshiradi. Bundan tashqari, ikki qo'lni yon tomonga ochish orqali hayrat, tushunmovchilik yoki "bilmaslik" holatini ifodalash mumkin. Ushbu imo ko'pincha emotsional-ekspressiv vazifani bajaradi. Har bir tur muloqot jarayonida o'ziga xos vazifani bajaradi va umumiy kommunikativ mazmuni shakllantirishda ishtirok etadi. Shuningdek, imo-ishoralar ma'nosi doimo kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bir xil harakat turli vaziyatlarda yoki turli madaniy muhitlarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Mazkur jihatlar imo-ishoralarning nafaqat shakliy, balki funksional va ma'no jihatdan ham murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi. Aynan shu nuqtada ularning pragmatik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Chunki imo-ishoralar muloqot jarayonida faqat harakat sifatida emas, balki muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi vosita sifatida ishtirok etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Imo-ishoralarning pragmatik xususiyatlari, avvalo, ularning kontekstga bog'liqligi bilan belgilanadi. Pragmatika nuqtayi nazaridan bir xil ifoda turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha ma'no kasb etadi. Masalan, "Menda kiyishga ko'ylagim yo'q" jumlasini olaylik. Agar ushbu gap ayol tomonidan dugonasiga nisbatan aytilsa, u ko'proq shikoyat yoki hissiy holatni ifodalash sifatida talqin qilinadi. Bu holatda so'zlovchi o'zining hozirgi kayfiyatini, qoniqmaslik hissini bildiradi hamda ehtimol suhbatdoshdan hamdardlik yoki maslahat kutadi. Demak, bu yerda gapning pragmatik ma'nosi emotsional-ekspressiv xarakter kasb etadi.

Biroq ayni shu jumla ayol tomonidan turmush o'rtog'iga nisbatan aytilganda, uning pragmatik mazmuni o'zgaradi. Bu vaziyatda gap bevosita axborot berishdan ko'ra bilvosita iltimos yoki talab sifatida tushunilishi mumkin. Ya'ni so'zlovchi yangi kiyim olish zarurligini nazarda tutadi va tinglovchidan muayyan harakatni, masalan, kiyim olib berishni kutadi. Har bir imo-ishora aniq vaziyat, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabat va kommunikativ sharoit asosida ma'no kasb etadi. Shu bois bir xil ishora turli nutqiy vaziyatlarda turlicha talqin qilinishi tabiiy hol hisoblanadi.

Bundan tashqari, imo-ishoralar so'zlovchining kommunikativ niyatini ifodalash vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, dars jarayonida o'qituvchi hech qanday so'z ishlatmasdan qo'lni pastga qaratib harakatlantirsa, bu o'quvchilarga tinchlanish yoki shovqinni

to'xtatish kerakligini bildiradi. Mazkur holatda qo'l harakati oddiy jismoniy harakat emas, balki aniq kommunikativ niyatni, ya'ni tartib o'rnatish va e'tiborni jamlashni ifodalaydi. Agar shu imo-ishora bo'lmaganida, o'qituvchi bu maqsadni og'zaki tarzda bayon qilishi kerak bo'lardi. Demak, imo-ishoralarning nutqni to'ldiradi, aniqlashtiradi yoki kuchaytiradi, ayrim hollarda esa mustaqil ravishda axborot uzatadi. Natijada ular nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim pragmatik omilga aylanadi.

Shuningdek, imo-ishoralarning pragmatik jihati ularning interpretativ xarakteri bilan ham bog'liq. Masalan, suhbat jarayonida bir kishi qo'llarini ko'ksiga chalishtirib turgan bo'lsin. Bu holatda mazkur imo-ishora sovuqqonlik, yopiq munosabat yoki norozilik belgisi sifatida talqin qilinishi mumkin. Tinglovchi buni suhbatga qiziqmaslik yoki salbiy munosabat ifodasi deb tushinishi ehtimoldan xoli emas. Biroq boshqa vaziyatda yoki boshqa shaxs tomonidan bu holat shunchaki qulay turish shakli sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Ya'ni imo-ishoralarning mazmuni tinglovchi tomonidan shaxsiy tajriba, madaniy bilim va vaziyatdan kelib chiqib talqin etiladi.

Imo-ishoralarning pragmatik xususiyatlarini to'liq anglashda madaniyatlararo omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki turli jamiyatlarda shakllangan ijtimoiy-me'yoriy qarashlar va kommunikativ odatlar bir xil imo-ishoraning turlicha talqin qilinishiga olib keladi. Shu sababli imo-ishoralarning universalligiga qaramay, ularning aniq pragmatik mazmuni ko'pincha muayyan madaniy kontekst bilan belgilanadi. Masalan, bosh qimirlatish ko'plab madaniyatlarda tasdiq, ya'ni "ha" ma'nosini bildirsa, ayrim hududlarda u inkor yoki shubha ifodasi sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Xuddi shuningdek, qo'l barmog'i bilan chaqirish ayrim jamiyatlarda oddiy murojaat shakli bo'lsa, boshqa madaniy muhitda bu hurmatsizlik yoki nojoiz xatti-harakat sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, ko'z bilan aloqa qilish darajasi ham madaniyatga qarab turlicha pragmatik mazmun kasb etadi. Ayrim jamiyatlarda suhbatdoshning ko'ziga tik qarash ishonch va ochiqlik belgisi sifatida qabul qilinsa, boshqa madaniyatlarda bu holat ortiqcha dadillik yoki hurmatsizlik sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mazkur farqlar shuni ko'rsatadiki, imo-ishoralarning faqat jismoniy harakat emas, balki ijtimoiy-madaniy tajriba bilan shakllangan murakkab kommunikativ birlikdir. Shu bois xalqaro yoki madaniyatlararo muloqot jarayonida imo-ishoralarning pragmatik xususiyatlarini to'g'ri anglash va ulardan mos ravishda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, madaniyatlararo pragmatik farqlar imo-ishoralarning talqinida xilma-xillikni yuzaga keltirib, kommunikativ jarayonning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda imo-ishoralarni o'rganishda nazariy tahlil, qiyosiy tavsif, pragmatik interpretatsiya va multimodal yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xususan, imo-ishoralarning nutq, prosodiya va mimika bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqildi. Shuningdek, Kendon, McNeill va Bavelas kabi olimlarning nazariy qarashlari metodologik tayanch sifatida xizmat qildi. Ushbu yondashuv imo-ishoralarni alohida hodisa sifatida emas, balki kommunikativ jarayonning integrallashgan tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kendon, McNeill va Bavelas kabi olimlarning nazariy yondashuvlari asosida quyidagi natijalarga erishildi. Birinchidan, imo-ishoralarning "ko'rinadigan nutq harakati" sifatida talqin qilinib, ularning nutq aktlari bilan sinxronligi hamda diskursni tuzilmashtiruvchi roli tahlil qilindi. Ikkinchidan, imo-ishora va nutq bir xil kognitiv jarayonning ikki ko'rinishi ekanligi asoslab berildi, ya'ni imo-ishoralarning fikrlash jarayonlari bilan integratsiyasi va ularning diskursiv bog'lanishdagi o'rni ko'rsatildi. Uchinchidan, interaktiv imo-ishoralarning dialogik vazifalari va tinglovchiga qaratilgan strategiyalari tahlil qilindi.

Maqolada qo'llanilgan multimodal tahlil yondashuvi imo-ishoralarni nafaqat alohida hodisa, balki nutq, prosodiya va mimika bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini ko'rsatdi. Bavelas va McNeillning eksperimental hamda videotahlil metodlari pragmatik imo-ishoralarni

tabiiy muloqot kontekstida o'rganish uchun samarali ekanligi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, imo-ishoralar muloqot jarayonida axborot uzatish, emotsional munosabat bildirish, suhbatni boshqarish va tinglovchining e'tiborini yo'naltirish kabi bir qator pragmatik funksiyalarni bajaradi.

Bundan tashqari, tahlillar imo-ishoralarning ko'p hollarda nutqdan mustaqil ravishda ham pragmatik ma'no hosil qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Biroq ularning to'liq interpretatsiyasi ko'pincha kontekst, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabat va madaniy fon bilan belgilanadi. Shu jihatdan imo-ishoralar kommunikativ niyatni yashirin yoki ochiq shaklda uzatishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA

Ushbu maqolada imo-ishoralarning og'zaki nutqdagi pragmatik vazifalari, ularning kontekstga bog'liq holda turli ma'nolarni ifodalash xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida imo-ishoralar nafaqat nutqni mazmunan boyituvchi, balki kommunikativ niyatlarni ifodalovchi, diskursni tuzilmalashtiruvchi va ijtimoiy interaksiyani boshqaruvchi muhim vosita ekanligi asoslab berildi.

Maqola asosan nazariy tahlil asosida amalga oshirilgani sababli, unda Kendon, McNeill va Bavelasning ilmiy qarashlari hamda eksperimental natijalariga tayanildi, yangi empirik materiallar esa kiritilmadi. Shuningdek, tadqiqot doirasida imo-ishoralarning pragmatik funksiyalari madaniyatlararo kesimda batafsil tahlil qilinmadi. Bu esa mavzuning keyingi bosqichlarda yanada chuqurroq o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi.

Kelgusida ushbu maqola asosida o'zbek tilining og'zaki muloqotida qo'llaniladigan pragmatik imo-ishoralarning repertuari va funksiyalarini o'rganish mumkin. Shuningdek, intonatsiya, pauza va imo-ishoralarning birgalikdagi pragmatik ta'sirini eksperimental asosda tadqiq etish ham istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv noverbal kommunikatsiyaning tilshunoslik va pragmatika doirasidagi ilmiy tavsifini yanada boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rasulov R., Shofqorov A., Mo'ydinov Q. O'qituvchi nutqi madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. – B. 7.
2. Jo'rayeva Sh. S. Imo-ishoralarning og'zaki nutqdagi ahamiyati // Journal of New Century Innovations. – Vol. 29. – B. 123–130.
3. Xasanova G. X. Dialogik nutqda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari. – Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2023. – 136 b.
4. Hakimov M. O'zbek pragmatik lingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2013. – 176 b.
5. Nurmonov A. O'zbek tilining paralingvistik vositalari haqida. – Andijon, 1980. – 42 b.
6. Mo'minov S., Rasulov Q. Komunikantlarning ijtimoiy roli va nutqiy muloqot haqida // Uslubshunoslik va frazeologiyaning dolzarb muammolari. – Samarqand: SamDU, 2007. – 72 b.